



**INSON MANFAATI – OLIY QADRIYAT**

**2**

**EKSPORT GEOGRAFIYASI KENGAYMOQDA**

**5**

**OLOV QALB METALLURGLAR**

**7**

**Po'lat o'tda toblanadi, odam - mehnatda**

# Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 31-oktabr № 10 (1532)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

## 11-NOYABR - O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI KUNI

Yurtimizda kechayotgan yangilanish va o'zgarishlarda kasaba uyushmalari ham faol qatnashib, islohotlarni qo'llab-quvvatlagan holda turli soha xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash borasida tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi ham faol ishtirok etayotganini e'tirof etish joiz.



### BUGUNGI SONDA

#### BAYRAMLAR

Ezgulik, tinchlik ramzi 3

#### BUGUNNING GAPI

Eng og'riqli joyimiz 4

#### TARIX

Misli ko'rilmagan natija 6

#### ACHCHIQ, AMMO OCHIQ GAPLAR

Tashmachilar jazolandi 8

#### SO'RAGAN EDINGIZ

Ishdan chetlashtirilganda ish haqi hisoblanadimi? 9

#### SALOMATLIK

Tabiatning o'zi tabib 10

#### SPORT

Ikkinchi davrada eng zo'r 11

#### TAFAKKUR QIL

Kelajak avlodni kim tarbiyalaydi? 12

## 12-NOYABR - TIBBIYOT XODIMLARI KUNI

O'zbekistonda noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi an'anaviy tarzda Tibbiyot xodimlari kuni sifatida nishonlanadi.

Metallurqlar, ular oila a'zolarining sog'liklarini mustahkamlashda, tiklashda kombinatning sanatoriy-profilaktoriysi, "Metallurg" shifoxonasi, poliklinika va sexlardagi tibbiyot punktlarida samarali faoliyat ko'rsatishmoqda.



## TEXNIKALAR DOIMO ISHGA SHAY

29-oktabr kuni kasb bayramlarini nishonlagan Yagona logistika markazining Avtomobil-transport xizmati xalq xo'jaligi yuklarini kombinatga tashib keltirish, korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni belgilangan manzillarga elitish, umuman ishlab chiqarishni bir maromda olib borishda munosib hissalarini qo'shib kelmoqda.

## INSON MANFAATI - OLIY QADRIYAT

BUGUNGI KUNDA MAMLAKATIMIZDA ERKIN VA FAROVON HAYOT, DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH YO'LIDA OLIB BORAYOTGAN IZCHIL ISLOHOTLARIMIZ VA ULARNING AMALIY NATIJALARINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING HAM MUNOSIB HISSASI BOR. SALKAM 120 YILLIK TARIXGA EGA O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATI DAVOMIDA YUKSALISH VA PASAYISH DAVRLARI HAM YUZ BERGAN, LEKIN BU TASHKILOT HECH QACHON O'Z DOLZARBLIGINI YO'QOTMAGAN. AYNIQSA, SO'NGGI YILLARDA KASABA UYUSHMALARI HAYOTIDA YANGI RIVOJLANISH BOSQICHI BOSHLANDI.



Yurtimizda kasaba uyushmalari tizimida 34 mingdan ortiq boshlang'ich tashkilotlar samarali faoliyat ko'rsatib, soha bo'yicha 6 ming 700 dan ziyod xodim va 300 mingga yaqin faollar fidokorona xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz kasaba uyushmalari o'z saflarida 5,5 milliondan ziyod xodimlarni birlashtirgan eng yirik jamoat tashkiloti hisoblanadi. Uning a'zolari soni doimiy tarzda ko'payib bormoqda.

Shuning uchun ham har yili 11-noyabr - O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni yurtimizning barcha ishchi-xodimlari tomonidan muhim sana sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi metallurglarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash borasida tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Bu ishlarning barchasi kombinat

boshqaruvi bilan Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi o'rtasida jamoa a'zolarining mehnatga oid va boshqa ijtimoiy, iqtisodiy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan jamoa shartnomasiga asosan amalga oshirilmoqda. Ushbu jamoa shartnomasi bandlarining bajarilishi muntazam ravishda nazoratga olingan.

Kasaba uyushmalari ommaviy jamoat tashkiloti sifatida mehnat ahli, ayniqsa, yoshlar va ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyatni shakllantirish kabi yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirishda ham kombinatning asosiy kuchlaridan biridir.

Ishchi-xodimlarning sog'liklarini muhofaza qilishda ham kasaba uyushmalarning munosib o'rinlari bor. Jumladan kombinatimizda sanatoriy-profilaktoriy metallurglar va ular oilasi a'zolarining sog'liklarini mustah-

kamlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, ishchi-xodimlarga respublika sanatoriylariga ham imtiyozli yo'llanmalar berib boriladi.

Ishchi-xodimlar o'rtasida turli ommaviy-madaniy va sport musobaqalari o'tkazishda ham kasaba uyushmasi tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasining "Metallurg" pansionatida, Metallurglar madaniyat saroyida, sport-sog'lomlashtirish majmuasida ishchi-xodimlar, hamshaharlari-mizning sog'liklarini mustahkamlash, vaqtlarini mazmunli va foydali o'tkazishlari uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan.

Kombinatda ishlaydigan har bir ishchi-xodim ijtimoiy hayoti kasaba uyushmalari bilan chambarchas bog'liq ekanligini yaxshi his qiladi. Chunki, uyushma tomonidan tashkil etiladigan turli tadbirlar, beriladigan imtiyozlar barchani o'ziga

qamrab oladi. Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi ishchi-xodimlarning mehnatdan tashqari ijtimoiy hayotiga rang-barangliklar qo'shish ustida salmoqli ishlar olib bormoqda.

Mamlakatimizda ulkan va ezgu vazifalarni amalga oshirish, "El aziz, inson aziz" degan oliyjanob g'oyani yurtimizdagi har bir korxonada va tashkilotda qaror toptirish, mehnatni farovonlik va baxt manbaiga aylantirish ko'p jihatdan kasaba uyushmalari va ularning samarali faoliyatiga ham bog'liqdir. Bu boradagi ularning ezgu ishlariga muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

Biz barcha kasaba uyushmasi a'zolarini, kombinatimizda bu sohada mehnat qilayotganlarni 11-noyabrda nishonlanadigan Kasaba uyushmalari kuni bilan tabriklaymiz. Xonadonlariga sihat-salamatlik, tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka, mas'uliyatli va sharaflilarda esa yangi yutuqlar yor bo'lishini tilaymiz.

## HAMISHA BIZGA G'AMXO'R VA E'TIBORLI

Kombinatimizda turli tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, bayramlar, sayohatlar ko'p tashkilashtiriladi. Bunda kombinat Birlashgan kasaba uyushmasining o'rnini alohida aytib o'tish kerak. Men ham kasaba uyushmasi tomonidan o'tkazilayotgan deyarli har bir tadbirda faol ishtirok etib kelaman.

Ularda yaxshigina natijalarga erishganman. Jumladan 2018-yil "Metallurg malikasi" ko'rik-tanlovida ishtirok etib, 2-o'rinni oldim. 2020-yil "Qadring baland bo'lsin ona tilim" ijodiy tanlovida eng yaxshi she'riy asar yo'nalishi bo'yicha g'olib chiqqanman. 2021-yil Alisher Navoiyning 580 yiliga bag'ishlangan "Navoiy va biz" mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovining eng yaxshi she'riy asar yo'nalishi bo'yicha 3-o'rinni olganman. Erishgan natijalarim uchun diplom va pul mukofotlari bilan taqdirlanganman.

Bundan tashqari O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim tavalludining 106-yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Zulfiyaxonim izdoshlari" nomli tadbirda faol ishtirokim uchun kombinat kasaba uyushmasi tomonidan "Tashakurnoma" hamda esdalik sovg'alar bilan mukofotlanganman.

Bunday yutuqlarga erishishimda, iste'dodlarimni yuzaga chiqarishda kasaba uyushmasining juda katta hissasi bor. O'zi aslida bu kabi tanlovlarni o'tkazishdan maqsad ham shu

bo'lsa kerak. Kombinatimizda yosh metallurglar ko'p. Ularning kunlarini maroqli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, hayotga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, iste'dodlarlarini namoyon etishlariga yordamlashish kabilarda kasaba uyushmasining o'rne beqiyos deb bilaman.

Kasaba uyushmasi faoliyatini mening hayotim misolida ko'rishni davom ettiradigan bo'lsam pandemiya davrida men ham betob bo'ldim. O'sha vaqtda menga moddiy yordam puli berishgan. Bundan tashqari kasaba uyushmasi tomonidan tashkillashtirilgan ko'plab viloyatlarga sayohatga borganman. Ba'zida pul tomonidan muammo bo'lib hamma ham ulug' qadamjolariga borolmaydi. Bu muammoning eng yaxshi yechimi kasaba uyushmasi tomonidan tashkillashtirilayotgan sayohatlarda faol bo'lish kerak, deb o'ylayman. Men ham mana shu imkoniyatlardan foydalanib viloyatimizdagi ziyoratgohlarga borganman. Kasaba uyushmasi a'zosi sifatida taniqli san'atkorlar konserti va spektakllar tomoshasiga borib kelganman. Bularning barchasi zo'r, albatta.

Sport tadbirlariga keladigan bo'lsam albatta men ham sog'lom turmush tarzi tarafdoriman. Shu sababli kasaba uyushmasi tomonidan tashkil etilayotgan sport musobaqalarida, yengil atletika, basketbol turlarida faol ishtirok etib kelaman.



Men kombinat Birlashgan kasaba uyushmasini onaga qiyos qilaman. Chunki onalarimiz singari ular ham hamisha bizga g'amxo'r, e'tiborli.

Birlashgan kasaba uyushmasi xodimlarini yaqinlashib kelayotgan kasb bayramlari bilan tabriklayman. Ishlariga rivoj, oilalariga tinchlik, shaxsiy hayotlarida omadlar tilab qolaman.

Bizni qo'llab, yaxshi va ba'zida tashvishli kunlarimizda doim yonimizda bo'lganliklari uchun ularga katta rahmat aytaman.

**Dilorom RAHMONOVA,**  
kombinat ijroiya apparati devonxonasi  
katta inspektori.

8-NOYABR – O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG‘I  
QABUL QILINGAN KUN



## HURLIK TIMSOLI

Yaqinda davlatimiz suverenitetining ramzlaridan biri – mustaqil O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganligiga 32 yil to‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi navbatdan tashqari VII sessiyasida tasdiqlangan Davlat bayrog‘i – mamlakat davlat suverenitetining ramzi hisoblanib, u yer yuzining shu sarhadlarida mustaqil O‘zbekiston davlati borligini anglatadi va o‘zida milliy-madaniy an‘analarimizni mujassamlashtiradi.

Bayroq qadim-qadimdan har bir xalqda mustaqillik, ozodlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan. Xususan, ajdodlarimiz yurt bayrog‘ini muqaddas bilib uni ardoqlaganlar, ko‘z qorachig‘idek saqlaganlar.

Davlatimiz bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi rasmiy delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safarlari chog‘ida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalarda, xalqaro ko‘rgazmalarda, mamlakatimiz vakillari qatnashayotgan xalqaro ahamiyatga molik tadbirlar, sammitlar, anjumanlar, sport musobaqalarida baland ko‘tariladi. Bularning barchasi Vatanimiz sha‘ni, xalqimiz g‘urur va iftixorining yorqin ifodasidir.

Bugun Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosi oldida, davlatimizning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik, savdo vakolatxonalarini va konsullik muassasalari binolari oldida hilpirab turgan, milliy havo kemalarimizga tasviri tushirilgan O‘zbekiston bayrog‘i barchamizda faxr-iftixor hissini uyg‘otadi.

Davlatimiz bayrog‘ida aks etgan har bir rang, belgi yurtimizning boy tarixi, milliy davlatchiligimiz, bebaho qadriyatlarimizni, Vatanimizning buyuk kelajagini ifoda etadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Mustaqil davlatimiz bayrog‘i tincho-soyishta, ozod va erkin hayotimiz, yorug‘ kelajagimizga bo‘lgan ishonchimiz timsolidir. Davlat ramzlarining muqaddasligini, ular bizga yurt manfaati har narsadan ustunligini anglatib, eslatib turishini har birimiz yodda tutishimiz shart.

Chexiya Respublikasining Brno shahrida 1959-yildan buyon o‘tkazilib kelinayotgan “MSV 2023” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Uning rasmiy ochilish marosimida Bosh vazir Abdulla Aripov so‘zga chiqib, mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiliklarida xorijiy sarmoyadorlar, savdo-sotiq ishlari, kompaniyalar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik uchun qulay imkoniyatlar yaratilgani haqida ma‘lumotlar berdi.

Ta‘kidlanganidek, mamlakatlar o‘zlarining turli sohalaridagi salohiyatini namoyish etish, xorijlik sarmoyadorlarni milliy iqtisodiyotiga jalb qilish, yangi hamkorlarni topish va istiqbolli kelishuvlarga erishishda mana shunday nufuzli

BUGUN AVTOTRANSPORT XIZMATIDA

## TEXNIKALAR DOIMO ISHGA SHAY

Metalluglar erishayotgan yutuqlarni avtomobilchilarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Xalq xo‘jaligi yuklarini kombinatga tashib keltirish, korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni belgilangan manzillarga eltish, umuman ishlab chiqarishni bir maromda olib borishda bu tarmoq xodimlarining katta xizmatlari bor.

Bugunga kelib Avtotransport xizmati yirik avtokorxonaga aylandi. Xizmatda ta‘mir-lash-mexanika ustaxonasi, ekspluatatsiya, yo‘l qurilish texnikalari xizmati uchastkalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Avtotransport xizmati berilgan har qanday vazifalarni bajara oladigan mehnat jamoasiga aylanib, muntazam ravishda oy, chorak, yil rejalarini o‘z vaqtida ado etishmoqda. Qolaversa avtomobilchilar yangi texnikalarni xarid qilib yanada samarali va sifatli xizmat ko‘rsatishning uddasidan chiqmoqdalar. Shu bilan bir qatorda tejamkorlik borasida erishayotgan natijalar ham yaxshi.



Joriy yilda 8ta avtomashinani benzin yoqilg‘isidan suyultirilgan tabiiy gaz yoqilg‘isiga o‘tkazilishi natijasida 62 514 000 so‘m iqtisod qilindi. Umumiy avtotransport vositalarining rejaga nisbatan amalda yoqilg‘ilar sarfi bo‘yicha 408 000 000 so‘m tejab qolindi.

Haydovchilar har qanday faslda, ob-havoda ham vazifalarini namunali bajarishadi. Bugunga kelib har bir mashinaning bir kunda o‘rtacha yo‘l bosishi 70,3 km.ni, yil boshidan buyon avtotransport xizmati tomonidan yuk tashish miqdori 7 107 829 tonnani tashkil etdi.

Texnikalarning texnik tayyorgarligi 90 foizni, ishga chiqish ko‘effitsienti 99,8 foizni tashkil etmoqda.

Xizmatda ko‘plab o‘z kasbining ustalari mehnat qilishadi. Ulardan tokar G. Eshonqulov, chilangar B. Abdulxatov, nazoratchi mexanik M. Qambarov va haydovchilar S. Xudoyorov, K. Toshmatov, Z.

Ochilov, B. Islomov, V. Lisenko, I. Saidov kabilar jamoada ko‘p yillardan buyon ishlab, mehnati bilan boshqalarga ibrat ko‘rsatib kelayaptilar.

Shuningdek, yosh haydovchilardan A. Norqo‘ziyev, M. Barakayev, Rizaqulov, A. Ablayev kabilar ham mehnatlari bilan e‘tiborga tushishgan.

Haydovchilik kasbi insondan ziyraklikni, ehtiyotkorlikni hamda hamisha hushyorlikni talab etadi. Avtotransport xizmati haydovchilari ana shunday xislatlarga ega bo‘lgan tajribali, o‘z ishining ustalari hisoblanishadi.

Aziz avtotransport xizmati mehnatkashlari sizlarni kasb bayramlaringiz munosabati bilan shaxsan o‘zim va kombinat rahbariyati tomonidan chin yurakdan muborakbod etaman! Sizlarga uzoq umr, sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik, mehnat zafarlari kasblaringga barkamollik tilab qolaman!

**Ziyodullo VOHIDOV,**  
Avtotransport xizmati  
boshlig‘i.

12-NOYABR - TIBBIYOT XODIMLARI KUNI

## EZGULIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekistonda noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi an‘anaviy tarzda Tibbiyot xodimlari kuni sifatida nishonlanadi. Bu haqdagi tegishli qonun 2006-yilning 12-sentabr kuni qabul qilingan.

Inson salomatligi uchun o‘zini mas‘ul va javobgar deb hisoblaydigan har bir tibbiyot xodimi bilim va malakasini doimiy oshirib borishi, yangi texnologiyalar va davolash usullarini har tomonlama puxta egallashi eng o‘tkir masalaga, hayotiy zaruratga aylanmoqda. Abu Ali ibn Sinodek buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari, o‘z vazifalarini vijdonan va halol bajarib kelayotgan shifokorlar xalqimiz hurmat va e‘tiboriga sazovor bo‘lib kelmoqdalar.

“O‘zmetkombinat” Ajda metallurglarni, ularning oila a‘zolari, shuningdek, pensionerlarning sog‘liklarini mustahkamlashga ham katta e‘tibor qaratib kelinayotir. Jumladan kombinatning sanatoriya-profilaktoriysida yaratilgan qulayliklar va sharoitlar barchaga ma‘qul kelmoqda.

“Metallurg” shifoxonasi, poliklinika, sexlarda faoliyat ko‘rsatayotgan tibbiyot punktlarida ham



profilaktika tadbirlari ko‘lamini kengaytirish va aholi salomatligini mustahkamlash yo‘lida zarur ishlar olib borilmoqda.

Bu shifo maskanlari kerakli tibbiyot texnikalari bilan jihozlangan bo‘lib, ular yanada takomillashtirilib borilayapti.

Odamlar dardiga darmon bo‘lmoq ezgulik va olijanoblikning yuksak namunasi. Shuning uchun ham jonkuyar va halol shifokorlar xalqimizning ardog‘ida. Mana shunday el-yurt hurmat-e‘tiborini qozongan shifokorlar ko‘p bo‘lsin!

**Aziz tibbiyot xodimlari, Sizlarni kelayotgan kasb bayramlaringiz bilan tabriklaymiz!**

## EKSPORT IMKONIYATLARI NAMOIYISH ETILDI



xalqaro ko‘rgazmalar muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi.

43 davlatdan 1260 ta kompaniya ishtirok etgan ko‘rgazmada O‘zbekiston delegatsiyasi alohida stend bilan ilk bor qatnashdi. “Made in Uzbekistan” milliy stendida metallurgiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish borasidagi namunalar namoyish etildi.

Ushbu xalqaro ko‘rgazmada “O‘zmetkombinat” Ajda ishlab chiqarilgan sirlangan po‘lat idishlar, navli va zoldir prokat mahsulotlari, issiqlikni o‘tkazmaydigan materiallar, rangli metallar hamda ferrotitishmalar ishtirokchilar e‘tiboriga havola etildi.

## KORRUPSIYAGA QARSHI MUROSASIZ BO'LAYLIK!

Barchamizga ma'lumki korrupsiya – Jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruption" so'zidan kelib chiqqan. Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari ma'no-mohiyatini o'zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda gayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir. Korrupsiyaviy qonunbuzarlarning yagona maqsadi davlat va Jamiyat qonunlarini aylanib o'tib, o'zga fuqarolar, ishchi-xodimlar hisobiga katta miqdorda moddiy boylik va mol-mulkarga ega bo'lishdir.

Oddiy til bilan aytganda, har qanday pora olish, berish va unda vositachilik qilish, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilmaslik, mansab vakolatidan foydalanib talon-taroj qilishning barchasi korrupsiyaviy jinoyatlar tarkibiga kiradi.

Korrupsiya aralashgan joyda iste'dod chekinib, bachkanalik o'zini namoyon eta boshlaydi. Mag'lubiyatga mukofot tegib, yutuq va malaka g'oliblik maydonini tark eta boshlaydi. Amal kursisiga o'rnashib olgan subitsizlik sabab rivojlanish jarayoni chirish bosqichiga ko'chadi.

Ma'lumki, 2003-yil 31-oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Korrupsiyaga qarshi konvensiya qabul qilindi. Bu esa, butunjahon



hamjamiyatining korrupsiyaviy illatlarga qarshi keskin kurash olib borishga bel bog'laganini anglatadi.

O'zbekiston 2008-yilda mazkur Konvensiyaga, shuningdek, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakatlari rejasiga qo'shilgan. So'nggi yillarda Prezidentimiz boshchiligida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim huquqiy asoslari yaratildi. Jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga, aholining huquq va manfaatlarini himoya qilishga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligiga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar olib borilmoqda.

2022-yil 12-yanvarda Prezidentimiz "Korrupsiyaga qarshikurashishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Mazkur qaror ijrosini so'zsiz ta'minlash uchun "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida ham korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, rahbarlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarning mavjud ekanligi, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilab olingan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda boshqarmalar kesimida Matbuot xizmati ko'magida ishchi-xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli targ'ibot tadbirlari olib borilmoqda.

Kombinat ishchi-xodimlaridan korrupsiyaning har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishlarini so'rayman.

Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxo'rlik va korrupsiya, qarindosh-urug'chilik, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

**Akmal SHARIPOV,**  
"O'zmetkombinat" AJ  
boshqaruvi raisining umumiy  
masalalar bo'yicha o'rinbosari.

### TILGA E'TIBOR - ELGA E'TIBOR

## OTA-ONA KABI AZIZ VA MUKARRAM

Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani, dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ota-onasi qanchalik aziz va mukarram bo'lsa, uning o'zligi va ma'naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadri va mo'tabardir.

### E'TIBOR OSHMOQDA, AMMO...

O'zidan kuchli, hukmron tillar ta'sirida tanazzulga uchragan tillar, millatlarga tarix guvoh. Shuning uchun ham har qanday mustaqil davlat o'z tilini har tomonlama rivojlantirishga, ilm-fan, davlat tili sifatida keng va faol qo'llanishiga shart-sharoit yaratadi, o'zga tillar ta'siriga tushib qolishidan himoya qiladi.

1989-yilning 21-oktabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo'yicha "Davlat tili to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, unga ko'ra O'zbek tiliga – davlat tili maqomi berildi. 2020-yil 10-aprelda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21 oktabr sanasi "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilindi.

Tilimizni e'zozlash, jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirishda davlat tomonidan e'tibor oshib bormoqda. Biroq biz shu millat vakillarining aksariyati negadir ona tilimizga yetarlicha e'tibor qaratmayapmiz, nazarimda. Bunga ko'p misollar keltirish mumkin.

Yangi do'kon, turli tamaddixonalar, aholiga xizmat ko'rsatish shahobchalari kabilar ishga tushsa ko'pchiligi e'tiborsizlarcha, balki ataydan peshlavhasiga "Мы открылись" (Biz ochildik) deb yozib qo'yish yaqin-yaqinlargacha oddiy holat edi.

Yana bir jihati bir savdo do'konlari, go'zallik salonlari, bozorlar, kafelarga xuddiki, o'zimizda jaranglaydigan, xaridorni o'ziga jalb qiladigan nomlar yo'qdek bizga yot nomlar qo'yilganiga ham ko'zimiz tushadi. Yaxshi hamki so'nggi

yillarda bizga tushunarsiz xorij nomlari ancha kamaydi.

Albatta, tillarni o'rganishimiz, dunyo tajribasidan foydalanishimiz kerak. Ammo, bu o'zbek tiliga loqayd munosabatda bo'lish, o'zga bir xorijiy tilni ko'klarga ko'tarish kerak, degani emas nazarimda? Buni o'zingizning ota-onangiz chekkada qolib, to'ylarga boshqalarni taklif qilayotganga o'xshatish mumkin.

### ENG OG'RILIQI JOYIMIZ

Hozir eng og'riqli joylarimizdan biri hujjatlarda ism va shariflarning xatolar bilan noto'g'ri yozilganligi bo'lmoqda. To'g'risini tan olish kerak, juda ko'p holatlarda hujjatlarda fuqarolarimizning ismi va familiyasi yoki otasining ismi xato yozilgan.

Albatta, ko'p hollarda bu u qadar ko'zga tashlanmaydi. Lekin turli ro'yxatlarga ko'zingiz tushsa, masalan, davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar ro'yxati bilan tanishgan chog'ingizda muammo borligini his qilaysiz. Jahonda birorta xalq o'z familiyasini bu qadar xato yozmasa kerak. Achilov, Ataxanov, Babayev, Shadmanov, Israilov, Urunboyev, Kamalov, Kilichov, Tadjiyev, Xalmurodov, Vaxabov, Gaepov, Gulomova, Ibragimov va hakoza.

Sobiq ittifoq davrida tug'ilgan ajdodlarning noto'g'ri yozilgan ismlari farzandlarga, undan so'ng nevaralarga qo'yilmoqda. Xato yozilgan shajara davom etmoqda.

Avvallari-ku, til bilmas o'zga millat vakillari shunday xatolarga yo'l qo'yishgan ekan, biroq o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgach, oradan o'nlab yillar o'tib ham bunday noxush holatlar takrorlanishining sababi nimada?

Shunday holatlar bo'ladiki, ism-familiyasini o'zbekchada to'g'rilab yozganimizda o'sha inson xuddi hujjatdagidek xato yozilishini talab qilgan vaqtlar bo'lgan. Bu nima? loqaydlikmi

yoki ona tiliga hurmatsizlikmi?

### OSONLASHTIRISH MUMKIN

Ammo ismini o'zbekcha ko'rinish va talaffuzga o'zgartirish istagida bo'lganlar ham bor, lekin hujjatini to'g'rilashga kirishganida ham bunga osongina erisha olmaydi. Ism va familiyasini to'g'rilashda eng murakkab joyi – hujjatni to'g'rilagan fuqaro agar yaqin qarindoshlarining ham ism-familiyasi o'zgartirilmasa notarial hujjatlar rasmiylashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

O'zi va farzandlarining ism-familiyasini o'zbekcha ko'rinishga keltirishni istovchilarga yengillik yaratish lozim. Kelgusida hujjatlar bilan bog'liq muammolar vujudga kelmasligi uchun jarayonni osonlashtirish kerak.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida ham har bir fuqaroning qonuniy haq-huquqlari yetarli darajada kafolatlangan. Shunday ekan, hozir vaqti-vaqti bilan fuqarolik pasportlarimiz almashib turganidan foydalanib, ismi, shariflarni to'g'rilab yozishni yo'lga qo'yish kerak. Notarial, sud va boshqa masalalarda eski (ya'ni buzilgan) ismi sharif haqida ilova ma'lumot berilsa bo'ladi. Eng asosiysi esa dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlarning ismi, familiyasini "Tug'ilganlik haqida guvohnoma"ga birato'la to'g'rilab yozish kerak! Unga qarab maktabdagi jurnalga aynan ko'chiriladi. So'ng o'rta ma'lumot to'g'risidagi shahodatnomaga to'g'ri yoziladi. Boshqa hujjatlar ham shu tariqa to'ldirib borilaveradi.

Huquqiy-demokratik davlatimizda har bir inson, uning sha'ni va qadr-qimmatini qonun yo'li bilan muhofaza etilar ekan, bizning ismi, shariflarimiz ham "Davlat tili haqida"gi qonunda belgilab qo'yilgan tartibda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

**Diyor ZULFIQOROV.**

# EKSPORT GEOGRAFIYASI KENGAYMOQDA

“O‘ZMETKOMBINAT” AJDA ISHLAB CHIQRISHNI UZLUKSIZ REKONSTRUKSIYA VA MODERNIZATSIYA QILISH, INVESTITSIYA LOYIHALARI ASOSIDA YANGI QUVVATLARNI ISHGA TUSHIRISH NATIJASIDA YUQORI SIFATLI RAQOBATBARDOSHLI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRILMOQDA. BU ESA SALMOQLI HAJMLARDA EKSPORTGA MAHSULOTLAR JO‘NATISH IMKONIYATINI BERADI.

Hozirgi kunda kombinat tomonidan qora metall prokat mahsulotlari, mis va latun lentalar, ferroqotishma va issiqlik o‘tkazmaydigan mahsulotlar, sirlangan emal idishlari kabi 10 dan ortiq, jami yillik 100 million dollarga teng mahsulotlar eksport qilib kelinmoqda.

Kombinat tomonidan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida jami 85 million 743 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi. Bu rejaga (67 million 121 ming dollar) nisbatan 127,7 foizni tashkil etdi.

Kombinat eksport geografiyasini kengaytirish uchun so‘nggi 2 yilda yangi 8 ta bozorni o‘zlashtirdi. Jumladan Litva, Latviya, Chexiya davlatlariga qora metall prokatlari, Bolgariya, Moldova, Ozarboyjon, Chexiya, Turkmanistonga sirlangan emal idishlar eksport qilish yo‘lga qo‘yildi. Bu mahsulotlarni Germaniyaga eksport qilish rejalashtirilgan.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilishda sertifikatga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham “O‘zmetkombinat” AJda chet davlatlarga mahsulotlar sotish uchun xalqaro sertifikatlar olish bo‘yicha keng hajmli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2022-2023-yillarda kombinatning navli prokat sexida metall mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida xorijiy standartlar talablarini joriy

etish va kelgusida Yevropa sertifikatlashtirish organlaridan sertifikatlar olish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Sertifikatlashtirish auditlari va



sinovlari natijalariga ko‘ra kombinatga Latviya, Litva, Polsha, Germaniya va Shvesiya sertifikatlashtirish organlari tomonidan Shvesiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya standartlari talablariga muvofiqlik sertifikatlari berildi.

2022-yil may oyida Latviya sertifikatlashtirish organi “Inspecta” tomonidan kombinatga diametri 10-40mm. bo‘lgan B500B sinfidagi issiqlik bilan mustahkamlangan prokatli davriy profillarni mustahkamlash uchun 3897/2022-sonli muvofiqlik sertifikatini va konstruktiv po‘latdan yasalgan issiqlikda tayyorlangan po‘lat uchun 1325-CPR-3898 sonli muvofiqlik sertifikatini berildi. 2023-yil may oyida tek-

shiruv auditi mahsulotlar va ishlab chiqarish jarayonining muvofiqligini tasdiqlash natijalariga ko‘ra



sertifikatlarning amal qilish muddati uzaytirdi.

2022-yil iyul oyida “Inspecta” sertifikatlashtirish organi kombinatga diametri 10-32 mm. B500B sinfiga mansub issiqlik bilan mustahkamlangan prokatli davriy profillariga 04-22-320-sonli muvofiqlik sertifikatini berdi.

2023-yil may oyida “Inspecta” sertifikatlashtirish organi kombinatga po‘lat navlari - SAE 1006, SAE 1008, SAE 1010, diametri 6,5; 8,0; 9,0; 10,0 mm. po‘lat simlar uchun 04-23-348-sonli muvofiqlik sertifikatini berdi. Shuningdek, 2023-yil may oyida kombinatga Polsha sertifikatlashtirish organi “ZETOM” tomonidan 10-32 mm. diametrli B500SP sinfidagi davriy profilli armaturalarning Polsha standart talablariga muvofiqligi to‘g‘risida 005-UWB-215-sonli sertifikat berildi.

2023-yil iyul oyida kombinatga Germaniya sertifikatlash organi “MFPA Leipzig GmbH” tomonidan 10-32 mm. diametrli B500B sinfidagi davriy prokatlarning DIN

488-1, DIN 488-2, DIN 488-6 talablariga muvofiqligi uchun UZ 1.2/23-019/23-425-1 g. sonli sertifikat berildi.

Bundan tashqari, 2023-yilda kombinatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimiga muvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha ishlar ham amalga oshirildi.

Aprel oyida sertifikatlashtirish ishlari natijalariga ko‘ra kombinatga sirlangan po‘lat idishlarga muvofiqlik sertifikatini berildi.

Termomustahkamlangan payvandlanuvchi armaturalarning yuqori plastiklik xususiyatlari va charchoqqa chidamliligi kabilarni tasdiqlash bo‘yicha ishlar olib borildi.

Sertifikatlash ishlari natijalariga ko‘ra 2023-yil avgust oyida kombinatga termomustahkamlangan payvandlanuvchi armatura prokatining A500CHY va A500CEY sinflariga muvofiqligi to‘g‘risidagi sertifikat olindi.

Termomustahkamlangan armaturalarning qo‘shimcha ekspluatatsion xossalari tasdiqlanishi “O‘zmetkombinat” AJ mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va iste‘molchilarning qurilishda, ayniqsa, zilzilaga moyil bo‘lgan hududlarda ishlatiladigan metall mahsulotlari xavfsizligiga qaratilgan ortib borayotgan talablarini qondirish imkonini berdi.

**Sarvinoz SHERALIYEVA,**  
“O‘zmetkombinat” AJ Matbuot xizmati boshlig‘i.

25-OKTABRDAN 1-DEKABRGACHA “KUZGI DARAXT EKISH MAVSUMI” E‘LON QILINDI

## DARAXTLAR BEBAHO NE‘MAT

Yurtimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi asosida millionlab tup daraxt nihollari ekilmoqda, yangi o‘rmon va bog‘lar yaratilmoqda. Yashil o‘rmon va daraxtzorlar, bog‘u rog‘lar atrof-muhitni musaffo saqlash, ekologik tizimni va iqlimni barqarorlashtirish, tuproq va havoni tozalashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

### “YASHIL BELBOG‘”LAR TASHKIL ETILADI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 31-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzoladi.

Ushbu farmon asosida O‘zbekistondagi 2 mingdan ortiq sanoat korxonalarini joriy yil 1-sentabrdan boshlab 3 yil davomida o‘z hududi va atrofida “yashil belbog‘”lar tashkil etishi kerak. Bu dastur doirasida respublika bo‘yicha 2023-yilda 2111 gektar maydon bog‘ga aylantirilishi kerak.

### KOMBINATDA HAM ISHLAR QIZG‘IN

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “O‘zmetkombinat” AJda ham ishlar qizg‘in ketmoqda. Kuz mavsumida kombinat bo‘ylab 10 ming dona har xil turdagi manzarali daraxtlar va gul ko‘chatlari ekish rejalashtirilgan.



Yaqinda Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexining Koks uchastkasi hamda Texnogen chiqindilarni qayta ishlash sexining bo‘sh maydonlariga tuproq olib kelinib, yer haydash ishlari bajarildi. Yo‘l yoqalari tozalanib obodonlashtirildi.

Marten sexi atrofidagi hududlar sanoat chiqindilaridan tozalanib, o‘rniga tuproq olib kelib to‘kildi hamda tekislandi. Bu joyda yarim gektar yerga “Yashil makon” bog‘i barpo qilinyapti.

Klining xizmati ishchi-xodimlari tomonidan issiqxonada yetishtirilgan oleandr, burama majnuntol, majnuntol, qoratal, pavlovniya, katalpa, sada, xilokatalpa, vodiy nilufari kabi ko‘chatlar hamda tez o‘sovchi yovvoyi uzum ko‘chatlari kombinatimiz bo‘ylab ekilmoqda.

### LOQAYD BO‘LMAYLIK!

Yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida “Yashil makon” kuzgi mavsumini samarali tashkil etish yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda “Yashil makon” umummilliy loyihasining amalga oshirilishi ko‘rib chiqildi.

Joriy yilda, 25-oktabrdan 1-dekabr gacha “Kuzgi daraxt ekish

mavsumi” e‘lon qilindi, uning doirasida 85 million tup ko‘chat ekish rejalashtirilgan. O‘rmon xo‘jaligi agentligiga har bir mahallaga 200 tadan ko‘chatni bepul yetkazib berish topshirildi. Bundan tashqari har bir viloyat hokimi ham 300 ming dona ko‘chatni mahallalarga bepul tarqatadi.

Keyingi paytlarda iqlim o‘zgarishlari, ayniqsa, changlarning keskin ko‘payishi ko‘pchiligimizda xavotir uyg‘otmoqda. Lekin bu holatga loqaydlar ham yo‘q emas. Hukumatning o‘zi buning chorasini topar yoki bir gap bo‘lar degan hayolda yurganlar ham yetarli. Ko‘rdik Orol nima bo‘lganini. Undan xulosa olib, kech bo‘lmasidan uyg‘onishimiz kerak! Cho‘llashish, suv tanqisligi, global isish, buzuq ekologiya sabab paydo bo‘ladigan kasalliklar kabi muammolarga bizing loqaydligimiz ham katta sabab aslida. Mamlakatimiz ekologiyasini asrash faqat hukumat gardaniga tashlab qo‘yilmaydigan, barchamiz birdek ogoh, sergak va bahamjihat bo‘lishimiz shart bo‘lgan mas‘uliyat ekanini unutib qo‘ymaylik!

**Ismat MAMATOV.**

# ZAVOD KENGAYISHINING TASHABBUSKORI VA TASHKILOTCHISI

## PROKAT MAHSULOTIGA TALAB OSHGAN EDI

Sharof Rashidov O'zbekiston metallurgiya zavodining taraqqiyoti uchun ham juda katta hissa qo'shgan inson edi. 1971-1985-yillardagi zavodimiz rivojlanishining tashabbuskori va tashkilotchisi o'sha davrlarda O'zbekistonga rahbarlik qilgan Sh. Rashidov bo'lgan edi.

1971-yilda O'zbekiston metallurgiya zavodi loyiha quvvatida ko'rsatilgan po'lat va prokat ishlab chiqarishni 5-6 martaga oshirib yuborgandi. Shunday bo'lsada Respublikamizda prokat mahsulotlariga talab katta edi. Shu sababdan Sharof Rashidov Moskvaga, o'sha davrdagi ittifoq mamlakati rahbariyatiga va qora metallurgiya vazirligiga O'zbekiston metallurgiya zavodini kengaytirishga ruxsat berishlarini iltimos qilib murojaat qilgandi. Bu masala ijobiy hal etilib, "Uralgipromet"ga loyiha tuzish topshirig'i berildi.

Ittifoqda shu paytga kelib xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish dolzarb masala bo'lib qolganligi sababli "Minchermet" 5 ta bir xil loyihada sirlangan idishlar korxonasini qurishni rejalashtirgan edi. Shu korxonalaridan biri bizda - Bekobodda quriladigan bo'ldi. U yiliga 20 ming tonna sirlangan idishlar ishlab chiqarish loyiha quvvatiga ega bo'lib, bu korxonada 2000, shu jumladan 1900 nafar ayol ish bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgandi. XIMICH korxonasi qurilishi munosabati bilan zavodimizning metallurgiya qismi qurilishi biroz orqaga surildi. 1974-yil avgust oyida XIMICH korxonasi ishga tushirildi.

Shundan so'ng 1975-yilda Elektr bilan po'lat eritish majmuasining qurilishi boshlandi.

Shu davrda zavodimizda ancha eskirib qolgan, ko'p mehnat, xarajat, talab qiladigan texnikalar yordamida prokat mahsulotlari ishlab chiqarilayotgan edi. Yiliga ishlab chiqarilayotgan 300-350 ming tonna mahsulot Respublikamizning talabini qondira olmas edi.

Gap shundaki, o'sha davrlarda respublikamizda fan-texnikaning o'sishi, og'ir sanoatning rivojlanishi qora metall mahsulotlari, ayniqsa, qurilish ehtiyojlari uchun ishlatiladigan turlariga talabni oshirgan edi. Uni esa Rossiya, Ukrainadan olib kelish ancha qimmatga tushayotgandi. Mintaqamizda temir-tersak chiqindilarining ko'payib borayotganidan ularning ko'p qismini tayyor mahsulotga aylantirish uchun yana Rossiya, Ukrainaga jo'natishga to'g'ri kelar edi.

Shu sababli ham zavodimizni kengaytirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish boshlandi. Xalq tili bilan aytganda yangi zavod - o'sha zamonning ilg'or texnologiyasiga tayanilib, quvvati 250 ming tonna po'latni elektr toki bilan eritishga mo'ljallangan 3 ta elektrpech hamda quvvati yiliga 1 450 ming tonna prokat mahsuloti ishlab chiqaradigan prokat sexiga ega sanoat majmuasi qurilishi avj oldi.

## KATTA E'TIBOR BERGAN

Sh. Rashidov zavodimizdagi bu qurilishlarni jadallashtirishga, ertaroq zavodni ishga tushirishga katta ahamiyat bergan. Qurilishlar davrida zavodimizga har yili kamida ikki marta - bahorda va kuzda kelardi. Har kelganida faqatgina zavod qurilishigagina emas, balki moddiy-madaniy ob'ektlar, ya'ni uy-joy, maktab, bolalar bog'chalari, xullas odamlarga zarur bo'lgan barcha ob'ektlarning qurilishiga, kadrlar tayyorlash masalalariga ham katta e'tibor qaratar edi.

Har kelganida zavod darvozasi oldida mashinadan tushib, rahbarlar xonasidan o'tib, ular bilan albatta qo'l ushlab so'rashar,



so'ngra qurilish ob'ektlarni ko'rib, ishlar qanday ketayotganini aniqlab, tag'in piyoda yurib shtabga kirar edi. Uning ishtirokidagi shtab yig'ilishlari tinch va ishchan ruhda o'tar edi.

## MISLI KO'RILMAGAN NATIJA

Kezi kelganda albatta buyurtmachilarni alohida olib qolib, qurilishlarga ittifoq byudjetidan iloji boricha ko'proq mablag' olishga harakat qilishlarini buyurar edi. "Sizlar qo'rqmanglar berilgan mablag'lar to'la-to'kis o'zlashtiriladi. Kerak bo'lsa boshqa qurilish tashkilotlarini ham sizlarga yordamga jalb qilamiz", deb bekobodliklarga dalda berardi. Keyingi kelganda buyurilgan vazifalarning qanday bajarilganini tekshirib chiqardi. Shuning uchun bo'lsa kerak nafaqat buyurtmachi zavod, balki quruvchi-montajchi tashkilotlar rahbar va mutaxassisleri ham Sharof Rashidovning hamma topshiriqlarini to'la-to'kis bajarardi. Shuning uchun bo'lsa kerak qisqa vaqt ichida uchta katta majmua bitkazilib ishga tushirildi. Bu misli ko'rilmagan natija edi. Bu ishning ko'lami naqadar katta bo'lganligini quyidagi misol ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Bu ulkan qurilish boshlanmasdan O'zbekiston metallurgiya zavodining umumiy maydoni 35 gektarga teng edi, endi esa - 500 gektarga yetdi.

Ishchi-xizmatchilar soni ilgari 2500 bo'lgan bo'lsa, qurilishdan so'ng 13 ming nafardan oshdi.

Korxonaning shiddat bilan kengayishi va yangi quvvatlarning birin-ketin ishga tushishi o'z navbatida bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga chiqara boshladi. 80-yillarning boshlarida qurilishdagi ayrim kamchiliklar, ishga tushgan quvvatlarni o'zlashtirishdagi oqsoqlik, moddiy-texnika ta'minotdagi uzilishlar, umumzavod ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Bu masalalarni ko'rib chiqish va hal qilishda ham Sh. Rashidovning yordamlari beqiyos bo'lgan.

## METALLURGLARGA ALOHIDA MEHR QO'YGAN

Sharof Rashidov nafaqat xalqimiz jonidan ortiq sevgan, ardoqlagan inson bo'libgina qolmay

yaxshi yozuvchi ham edi. Hatto she'r ham yozardi. Uning kitoblari do'konlarda turib qolmasdi.

Sharof Rashidov 1945-yilda, endigina zavodimiz ishga tushganda yozgan "Po'lat quyuvchi" she'rini xuddi po'lat erituvchilik qilgan odamdek, zo'r bitgan ekan. Shu she'r metallurglarimizda ham katta qiziqish uyg'otgan edi.

## PO'LAT QUYUVCHI

Yagona ish, oliy intilish -  
Ishda bo'lar po'lat azondan,  
Shijoatni ko'rganda temir  
Suvday oqar erib qozondan.

Mehnat bilan topadi shuhrat,  
Joni fido jangovar ishga...  
O'tash yonar, qarshida go'yo -  
Quyosh kelgan olqish aytishga.

Yuragida g'ayrat yonadiri,  
Po'latni ham eritgan g'ayrat.  
(O't ichida qayta toblanish -  
G'ayrat paydo qilgan jasorat).

Yigirma yil olov ichida,  
Po'lat bo'lib quyulgandir tan.  
Olov bilan jon bo'lib kirgan,  
Ishchi qalbga shu ulug' Vatan.

Yagona ish, oliy intilish -  
Ishda bo'lar po'lat azondan,  
Shijoatni ko'rganda temir  
Suvday oqar erib qozondan.

Sharof Rashidov metallurgiya zavodimizning taraqqiyoti uchun ko'p mehnat sarflash bilan birga, korxonamizga alohida mehr ham qo'yan. Buni uning ushbu she'ri ham tasdiqlab turibdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Bunday insonlar butun o'zbekistonliklar kabi bekobodliklar qalbidan abadiy joy olgan.

**Diyor MUHAMMADOV.**

## BEKOBOD O'G'LONLARI, OLOV QALB METALLURGLAR

Kombinatimizda Ilhom Qurbonovni ko'pchilik o'zining ustoz deb biladi. U Toshkent Politexnika institutining Olmaliq bo'limi tog'-metallurgiya kechki fakultetida o'qiyotganida Olmaliq ximiya zavodi neytralizatsiya sexida elektr-chilangar, usta vazifasidan mehnat faoliyatini boshlagan. Keyinchalik kombinatimizda, Bekobod shahrida mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan. Bekobod shahar Ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari, "Bekobodsemta'mir" korxonasi direktori, "Bekobodsement" hissa-dorlik jamiyati raisi, kombinatimizda Uy-joy va umumiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexi boshlig'i, kadrlar bo'limi boshlig'i, kasaba uyushma qo'mitasi raisi kabi lavozimlarda ishlagan. Bugungi kunda Ilhom Qurbonov O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining Bekobod filiali raisi.

Ustozning hayot yo'li yoshlar uchun ibrat. Biz u kishidan ko'p narsalarni o'rganishimiz kerak. Yaqinda Ilhom otaning she'r yozishini, yozganda ham zo'r yozishini bilib qoldik. U O'zbekiston xalq shoirlari Abdulla Oripov,



Erkin Vohidovlar bilan yaxshi tanish bo'lgan. Ijodkorlar davrasida uchrashib turishgan. Ular kabi she'rlar bitgan. Faqat she'rlarini hech joyda e'lon qilmagan.

Bu she'rlarining ayrimlarini gazetamizda chop etishni so'raganimizda I. Qurbonov uzoq ikkilanishlardan so'ng quyidagi she'rlarini mushtariylar e'tiboriga havola qilishga rozi bo'ldi. Falsafiy mushohadalar, sodda yo'singa yo'g'rilgan fikrlar, majoziy va ramziy ifodalar bilan bitilgan bu she'rlar barchaga birdek, ma'qul bo'ladi, deb o'ylaymiz.

## METALLURG DO'STINGA

Yoshligimdan mehrimni olgan,  
Tangri bizga do'stlikni solgan,  
Bolalikning hidlari qolgan,  
Diydoringga to'ydirgin, do'stim.  
Qalbing qo'ri quyoshdan o'tgan,  
Nigohing po'latni eritgan,  
Yigitlikda yelkangni tutgan,  
Diydoringga to'ydirgin, do'stim.  
Gullar ketib bahor o'tganda,  
Yaqinlarim tarqab ketganda,  
Vujudimni sog'inch elitganda,  
Diydoringga to'ydirgin, do'stim.  
Hayotimdan ko'nglim to'lganda,  
Armonlarim ushal bo'lganda,

Qadamlarim shahdi so'lganda,  
Diydoringga to'ydirgin, do'stim.  
Tongda turib hassasiz yurdim,  
Yalang oyoq yoshligim ko'rdim,  
Tirik baxtni bilib ulgurdim,  
Diydoringga to'ydirgin, do'stim.  
Qaytmoqdadir yana turnalar,  
Ulug' yoshim saksandan oshar,  
Ikki dunyo meni taloshar  
Diydoringga to'ydirgin, do'stim.  
Aziz yurtim gullayotgan bog',  
Ho', do'nglikda bir siqim tuproq,  
Senu menga bugun yaqinroq,  
Diydoringga to'ydirgin, do'stim.

2023-yil 17-mart.

## QASHQADARYO BAHORI

Qarshi adirlarida, gulga tutqinlik bo'ldi.  
Maysalarning hididan, hislar maftunlik bo'ldi.  
Qara, kelib qolibdi Abdulloning bahori,  
Ikromjon nolasidan, dunyo tutunlik bo'ldi.  
Birinci muhabbatga, sig'inmagan qolmadi,  
Ahli ishq dunyosida, sirli afsunlik bo'ldi.  
Shoir Sinoni izlab, Kolumbning kulbasidan  
Tuynuksiz qasrin topdi, umri yakunlik bo'ldi.  
Tobut o'tgan ko'chadan, bor dunyo ham yo'qoldi,  
Kuzda bahor ifori, vidolik kunlik bo'ldi.  
Bu ne ko'rgulikim, ayriliqqa-ayriliq,  
Afg'onu ohlarimiz kuchli quyunlik bo'ldi.  
Shoirni sog'inmoqda, oshiqlaru Mirzolar,  
G'aribdan qolgan saroy, minglab ustunlik bo'ldi.  
Adirlardan taralgan, baxtga to'la tiriklik  
Ilhomdek parvonaga, bir shamsiz tunlik bo'ldi.

2016-yil 5-noyabr.

## BEKOBOD METALLURGLARI

Bekobodning shamoli ko'krugin yelpib turgan,  
Sirdaryodan suv ichib mushtin ko'tarib yurgan,  
Dovud payg'ambar qo'llab faqat omad buyurgan,  
Bekobod o'g'lonlari, olov qalb metallurqlar.  
Farhod Shirinni izlab bu yerga kelib qolgan,  
Qoyalarni qo'porib ulkan kanallar solgan,  
Ilk bor Farhod GESidan quvvat tokin olgan,  
Bekobod o'g'lonlari, olov qalb metallurqlar.  
Ming olti yuz daraja qozoningni qaynatar,  
Peshonangning terlari g'ayrat qo'shig'in aytar,  
Olgan nafaslarindan harorat, otash qaytar,  
Bekobod o'g'lonlari, olov qalb metallurqlar.  
Tinim bilmas jihozlar, ichi o'tli qozonlar,  
Kantovkalar, rolganlar, klet aylangan onlar,  
Vatanga qudrat bergan sendek oddiy insonlar,  
Bekobod o'g'lonlari, olov qalb metallurqlar.  
Bunyodkorlik san'ati Temur bobomdan meros,  
Qurilish, inshootlar elim niyatiga mos,  
Poydevorlar kamari seniki bo'lgani rost,  
Bekobod o'g'lonlari, olov qalb metallurqlar.  
Mehnatning hosilidan bo'lar o'ta mustahkam,  
Yuz qavatli binoning po'lat qovurg'asi ham,  
Bunchalar shijoatli, yelkador, kuchli, o'ktam,  
Bekobod o'g'lonlari, olov qalb metallurqlar.

2023-yil 28-fevral.

## TARIF NARXLARI MUTLAQO O'ZGARMAYDI

**Ijtimoiy tarmoqlarda 1-noyabrdan boshlab bir oyda elektr energiyasini o'rtacha oylik iste'moli uchun to'lov miqdoriga o'suvchan koeffitsiyent qo'llanilishi turlicha baholanmoqda.**

Avvalo, shuni aytish kerakki, mazkur o'suvchan koeffitsiyent aholi iste'molchilarining 98 foiziga mutlaqo ta'sir qilmaydi. Chunki mamlakatimizdagi 7 million 589 mingdan ziyod abonentning atigi 146 mingdan ortig'i 1000 kilovatt/soatdan ko'p elektr energiyasi yoqadi, xolos. Ularning atigi 10 ming nafarigina oyiga 5 ming kilovatt/soatdan oshiq, bor-yo'g'i, 4 mingdan ortiq iste'molchi esa oyiga 10 ming kilovatt/soatdan ziyod elektr energiyasi iste'mol qiladi.

**Bizni xursand qiladigan jihati, bu yangilikni ko'pchilik sog'lom aql bilan to'g'ri qabul qilyapti va qo'llab-quvvatlamogda.**

Shunga qaramay, iste'molchilarda qo'shimcha savollar paydo bo'lmasligi uchun qisqacha tushuntirish berib o'tmoqchimiz.

Avvalo, **tarif narxi oshayotgani yo'q.** O'sha 295 so'm joy-joyida turibdi.

Ammo odamlarda tejamkorlik kayfiyatini kuchaytirish hamda "yashirin iqtisodiyot" unsurlariga barham berish uchun qo'shimcha o'suvchan koeffitsiyent qo'llanilishi nazarda tutilmoqda.

Bunda siz **bir oyda 1000 kilovatt/soatgacha** elektr energiyasi sarflasangiz, **295 so'mdan 295 ming so'm** to'laysiz.

**1001 kilovatt/soatdan 5000 kilovatt/soatgacha** sarflasangiz, **1000 kilovatt/soat** uchun **295 so'mdan 295 ming**, aytaylik, **4850 kilovatt/soat** yoqqan bo'lsangiz, **1001 dan 4850 gacha 590 so'mdan 2 million 271 ming 500 so'm+295 ming so'm=jami 2 million 566 ming 500 so'm** to'laysiz.

Oldin siz buning uchun **jami 1 million 430 ming 750 so'm** to'ladingiz xolos.

Agar **bir oyda 9420 kilovatt/soat** ishlatsangiz-chi?

Xuddi boyagidek **1000 kilovatt/soat** uchun **295 ming so'm**, **1001 kilovatt/soatdan 5000 kilovatt/soatgacha 590 so'mdan 2 million 360 ming so'm**, **5001 kilovatt/soatdan 9420 kilovatt/soatgacha 3 million 911 ming 700 so'm**, jami **6 million 566 ming 700 so'm** to'lov qilasiz.

O'suvchan koeffitsiyentgacha esa **bir oyda 9420 kilovatt/soat** sarflagan iste'molchi bunga **2 million 778 ming 900 so'm** to'lardi.

Ya'ni u **bir oyda eng ko'p** subsidiya olgani holda, **aholining qolgan 98 foiz qismidan ko'ra bir necha o'n karra ko'proq** elektr energiyasini iste'mol qilardi.

1-noyabrdan keyin bunga chek qo'yiladi.

Xuddi shu o'suvchan tarif **10 ming kilovatt/soat-**

**dan ziyod tok** ishlatadiganlarga ham qo'llanilmoqda. Endi kimda-kim bundan ko'p svet yoqsa, u uchun **belgilangan tarifga nisbatan 4 barobar o'suvchi koeffitsiyent** qo'llaniladi.

Ya'ni, siz **bir oyda 12 ming 400 kilovatt/soat** sarflasangiz (*aql bovar qilmaydi, ammo hozir ham xuddi shu miqdorda elektr energiyasi yoqadiganlar bor*), unga quyidagicha to'lov qilasiz.

**1000 kilovatt/soatgacha - 295 so'mdan - 295 ming so'm.**

**1001 kilovatt/soatdan 5000 kilovatt/soatgacha - 590 so'mdan - 2 million 360 ming so'm.**

**5001 kilovatt/soatdan 10 ming kilovatt/soatgacha - 885 so'mdan - 4 million 425 ming so'm.**

**10 ming kilovatt/soatdan 12 ming 400 kilovatt/soatgacha - 1180 so'mdan - 2 million 832 ming so'm.**

**Jami: 9 million 912 ming so'm.**

1-noyabrgacha esa xuddi shuncha miqdorda elektr energiyasi iste'mol qilgan abonent **3 million 658 ming so'm** to'lardi xolos. Shu bilan birga, u davlatdan **8 million 370 ming so'm** shartli subsidiya ham olardi.

Xullas, bu o'suvchan koeffitsiyentlar adolatli hamda energiya tejamkor va energiya samarador yechim bo'lmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi  
Energetika vazirligi.**

Oramizda shunday insonlar ham borki ular davlat va jamoat mulkiga ko'z olaytirib, nafs domiga ilingandirlar. Shundaylardan biri hamshahrimiz Ilboshi Umidovdir (ism-shariflar o'zgartirilgan). U "Ronesans avrasya insoat ticaret anonym sirketi", MCHJda haydovchi bo'lib ishlab kelayotgandi.

## OCHIQ SUD MAJLISIDA

### TASHMACHILAR JAZOLANDI

2023-yil 11-sentabr kuni I. Umidov o'zi boshqaruvidagi suv tashuvchi avtomashinada mana shu MCHJ ishchisi Botir Niyozov (ism-shariflar o'zgartirilgan) bilan birgalikda noqonuniy ishga qo'l urishadi. Ular "O'zmetkombinat" Ajdan rangli metall parchalari hamda dizel yoqilg'isini yashirin olib chiqishmoqchi bo'lishadi. Bu g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun kombinatning 6-sonli nazoratdan o'tish joyidan avtomashinada o'tayotganlarida harbiy qism xizmatchilari tomonidan to'xtatiladi. Tekshiruv chog'ida mazkur avtomashinada yashirilgan umumiy bahosi 1 788 ming so'mlik 13,2 kilogramm mis rangli metall parchalari hamda 60 litr dizel yoqilg'isi borligi aniqlangan.

Joriy yilning 22-sentabrida jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod



shahar sudi ochiq sud majlisida bu ma'muriy ishni ko'rib chiqdi.

Sud majlisida I. Umidov rangli metall parchalarini tanishi Botir Niyozov iltimos qilganligi uchun avtomashinasiga ortganligi, dizel yoqilg'isini omborchi unga boshqa joyda ishlayotgan traktorga olib borishi uchun berganligi haqida ko'rsatma beradi.

B. Niyozov esa rangli metall parchalari haqiqatdan ham uniki ekanligini tan oladi. Biroq dizel yoqilg'isi unga tegishli emasligini bildiradi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarlarning aybi ularning sud majlisida bergan iqrorlik ko'rsatuvlaridan tashqari, Bekobod shaharlararo Qo'riqlash bo'limi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonnoma, tushuntirish xatlari hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topgan, deb hisobladi.

Sud huquqbuzarlarni O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topib, ularga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida - 330 000 so'mdan jarima jazosi tayinlash haqida qaror chiqardi.

**Farhod ZOKIROV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Bekobod shahar sudi sudyasi.

## MULOHAZA

### TARBIYASIZLIK VA XUDBINLIK

Yaqinda "Metallurg" shahar shifoxonasining poliklinikasida tibbiy ko'rikdan o'tdik. Hozir kombinat ishchi-xodimlari tibbiy ko'rikdan avvalgi yillardagidek birdaniga juda ko'pchilik o'tmaydi. Shifokorlarga navbatlar katta emas.

Avvalgidek odamlar bitta eshikni "yarim oy" shaklida o'rab olib, uzoq vaqt navbatda turishlariga barham berilgan.

Biroq, yaratilgan sharoitlarga qaramay odamlar o'rtasida navbat talashish, navbatsiz kirishga urinish holatlari borligi afsuslanarlidir. Deyarli hamma biri birini taniydi. Ko'pchiligi oliy ma'lumotli kishilar. Hattoki tibbiy ko'rikdan o'tish jarayonida bir ikki soat orasida ikki marta navbat talashib aytishib qolganlar ham bo'ldi. To'g'risi bu holatga kul-sangiz ham bo'ladi, yig'lasangiz ham. Achinarli holat.

Bir qarashda navbat oddiy, arziyas narsaday tuyuladi. Biroq navbat odamlarning bir biriga hurmati, tarbiyasi, intizomi, madaniyati, insoniyligi belgisi. Masalan, hayvonlar o'ylab, farosatini ishlatib, navbatga tura olmaydi. Ularda buning uchun ong yetishmaydi.

Navbat odobi insonlarga aynan



tarbiya orqali beriladi. Shu sababli navbatlarda jismonan ojiz insonlarga - bolali onalar, keksalar va nogironlarga yo'l beriladi. Bu toifaga kirmaydigan insonlar esa o'zaro hurmat va intizom asosida navbatga turadilar.

Navbatda oldinga o'tib ketishga intilish va boshqalarning manfaatlaridan o'zinikini ustun qo'yish istagi insonning xudbinligini namoyon etadi. Xudbinlik rivojlanib, murakkablashib borgan sari poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, o'g'ri-lik, baxillik, hasad va hokazo ko'rinishlarga kirib boraveradi. Ya'ni navbatda o'zgalarning ustidan bosib o'tib ketishga qodir bo'lgan odamlar bundan-da muhimroq vaziyatlarda o'zgalarni yanchib, og'ir ahvolda qoldirib ketishga qodir bo'ladi.

Kimda-kim oddiygina navbatda turish odobini bilmaydigan yoki unga amal qilmaydigan bo'lsa, u insonni bemalol tarbiyasiz va xudbin inson deb atash mumkin. Bir kun kelib yurtimizda poraxo'rlik, tanish-bilishlik, pul berib birovlarining o'rniga o'qishga, ishga kirish kabi ilatlar yo'q bo'lib ketishini xohlasak, o'zimizni isloh qilishni hozirdanoq navbatga to'g'ri turishdan boshlashimiz kerak. Shunda bora-bora boshqalar ham o'zimizga o'xshagan inson ekanligini, ularning ham tashvish va muammolari bo'lishi mumkinligini, pora bilan ishimizni bitkazib, boshqalarni baxtsiz qiladigan bo'lsak, bir kun kelib kimlardir bizni ham baxtsiz qilishi mumkinligini his qiladigan bo'lamiz.

**Diyor ISMATOV.**

## "NIMANI XOR QILSANG, SHUNGA ZOR BO'LASAN"

### "YENGLAR, ICHINGLAR, AMMO ISROF QILMANG'LAR"

#### ACHINARLI AHVOL

Kombinatimiz oshxonalarida ko'p marta ishchi-xodimlarning ovqati yoki noni ortib qolganligiga ko'zimiz tushgan. Bu holatni bizning oshxonalarda emas boshqa joylarda ham ko'rish mumkin. Bu ko'pchiligimiz uchun odatiy holatga aylangan, desam xato qilmagan bo'laman. Ayniqsa, to'ylarimizdagi isrofgarchiliklar achinarli ahvolga kelgan. Ehe qanchadan qancha yeguliklar, noz-ne'matlar dasturxonlarda qolib ketadi.

Toshkent shahrida bir kunda 3 tonna non axlatga tashlanar ekan. Shahar "Maxsustrans" ishlab chiqarish boshqarmasi bosh inspektori Ismoil Sagdullayevning ma'lumot berishicha, ayni paytda poytaxtda eng ko'p chiqindiga tashlanadigan mahsulot bu - non va oziq-ovqat mahsulotlaridir. Bu mahsulotlarni yildan-yilga chi-



qindiga tashlash holatlari ortib bormoqda.

Muqaddas dinimiz Islomda isrof qattiq qoralangan. Alloh taolo O'z Kalomida: - "Yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmang'lar. Zero, U isrof qilguvchilarni sevmas", deb aytgan (A'rof, 31). Bundan kelib chiqadiki, Alloh bergan ne'matlarni isrof qilish, ularning qadriga yetmaslik gunohdir.

#### DAHSHAT...

Biz mana shunday isrofgarchiliklarga yo'l qo'yayotgan bir paytda bashariyat hanuz o'zining birinchi muammosi - to'yib ovqatlanishni tugal hal qila olgani yo'q. Nafaqat hal qila olmadi, balki so'nggi yillarda ochlikka mahkumlar soni muttasil oshib bormoqda.

Birlashgan Millatlar tashkilotining Ochlikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha koordinatori Rina Gelanining so'zlariga ko'ra, o'tgan yili dunyoda ochlikdan aziyat chekayotganlar soni chorak milliard kishiga yetdi va bu so'nggi vaqtlardagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Eng dahshatli - ochlik oqibatida har yili o'rtacha 5 million bola nobud bo'ladi.

#### OCHARCHILIK SABABLARI

Ocharchilik kelib chiqishining bir nechta sababi bor. Eng asosiysi iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik oqibati katta hududlarda hosildorlik pasayishi, tabiiy ofatlar, iqtisodiy muammolar ortidan aholining katta qismida xarid qobiliyati

kamayishi, jiddiy harbiy harakatlar, davlatlararo ziddiyatlar ocharchilikni paydo qiluvchi va kuchaytiruvchi bevosita sabablardir.

#### ISROF

Bu borada o'ziga xos paradoks kuzatiladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'ylab tayyor oziq-ovqatning 30 foizi chiqitga chiqariladi. AQSHda bu ko'rsatkich 40 foizgacha, Buyuk Britaniyada 50 foizgacha yetadi, ya'ni yegulikning deyarli yarmi tashlab yuboriladi. Yevropada yiliga 100 mln. tonna, jahon bo'yicha esa 1,3 mlrd. tonna ovqat mahsulotlari isrof qilinadi. "Agar bu mahsulotlarning yarmi zarur joyga yetib borsa, dunyoda ocharchilik muammosi hal qilinishi mumkin bo'lardi", deyiladi BMTning bu boradagi axborotida.

Yoshligimizda "Non ushog'ini bosib o'tsang, ko'r bo'lasan", deya ta'kidlashardi. Ko'chada ushoqni ko'rsak, olib, changini puflab, ko'zga surtib, chetga qo'yardik. Hozir ko'plab xonadonlarda dasturxonlardan bir bo'lak non pastga tushib ketsa, olib yeyilmaydi, aksincha, po'choqqa yoki axlat chelakka tashlanmoqda. Nonga shu zaylda munosabatda bo'lsak, Xudo ko'rsatmasin, ertaga afsuslanib qolmaylik. Axir "Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan", degan hikmat bejiz aytilmagan-ku!

**Diyor ZULFIQOROV.**



## ISHDAN CHETLASHTIRILGANDA ISH HAQI HISOBLANADIMI?

**Mehnatni muhofaza qilish sohasida bilimlarim tekshiruvdan o'z vaqtida o'tmaganligim uchun ishdan chetlashtirilishim mumkin ekan. Ishdan chetlashtirilsam menga ish haqi hisoblanadimi?**

**K. Usmonov.**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga asosan ish beruvchi quyidagi hollarda xodimni ishdan chetlashtirishi shart:

- qonunchilikka muvofiq vakolatli davlat organlarining talabiga ko'ra;
- alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida ishga kelganida yoki ishda bo'lganida;
- mehnatni muhofaza qilish sohasida o'quvdan hamda bilim va ko'nikmalari tekshiruvdan o'tmaganda;
- majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmaganda;
- xodim tomonidan mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni bajarish uchun tibbiy xulosaga muvofiq qarshi ko'rsatmalar aniqlanganda;
- tibbiy xulosaga muvofiq sog'lig'ining

holatiga ko'ra to'rt oygacha muddatga vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga muhtoj bo'lgan xodimni o'tkazish rad etilganda yoxud ish beruvchida ish mavjud emasligi munosabati bilan bunday xodimga tegishli ishni taklif etish mumkin bo'lmaganda;

- xodim mehnat to'g'risidagi qonunchilikka yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalariga muvofiq foydalanilishi shart bo'lgan shaxsiy va (yoki) jamoaviy himoya vositalaridan

foydalanmaganda.

Xodim karantinli va odam uchun xavfli boshqa yuqumli kasalliklar tahdidi vaqtida joriy etiladigan profilaktik emlashdan o'tishni rad etganda ish beruvchi uni ishdan chetlashtirishi mumkin. Emlashga xodim sog'lig'ida qarshi ko'rsatmalar bo'lsa ishdan chetlashtirilmaydi.

Xizmat tekshiruvi o'tkazilganda ham xodim unga xalaqit berishiga asosli sabab bo'lsa, xodim ishdan chetlashtirilishi mumkin.

Ishdan chetlashtirish davrida xodimga ish haqi hisoblanmaydi. Biroq o'z aybisiz mehnatni muhofaza qilish sohasida o'quvdan hamda bilim va ko'nikmalari tekshiruvdan o'tmagan yoki majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodim ishdan chetlashtirilgan hollarda yoxud, agar xodimga ish beruvchi tomonidan shaxsiy yoki jamoaviy himoya vositalari berilmagan, shuningdek agar xodim ish beruvchi tomonidan unga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan ishdan chetlashtirilgan bo'lsa, ishdan chetlashtirilgan davr uchun xodimning o'rtacha oylik ish haqi saqlanib qoladi.



## MAJBURIYATLAR BORMI?

**Ko'p qavatli uylarda nechta it va mushuk saqlash mumkin. It va mushuk egalari qanday majburiyatlari bor?**

**O. Toshmatova.**



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog'liq xizmatlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 4-ilovasida aholi punktlarida itlar va mushuklarni saqlash qoidalariga belgilangan.

Bu qoidalarga asosan jumladan ko'p qavatli uyning alohida kvartirasida qo'shnilarining va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining roziligi bilan bittadan ortiq bo'lmagan itni va bitta mushukni saqlashga ruxsat beriladi. Alohida uyda itlarni saqlashga faqat bog'langan holda, erkin sayr qildirishda - atrofi o'ralgan hududda ajratilgan holda saqlashga yo'l qo'yiladi.

Itlar ochiq joylarda sayr qildirilganda va turar joy binolarida itlarning egalari tinchlik saqlanishini ta'minlashlari - ertalab soat 8.00 gacha va kechqurun 22.00 dan keyin itlarning vovillashining oldini olishlari kerak.

Itlarning egalari atrofda odamlar va hayvonlarning xavfsizligini ta'minlash, itlarning qo'shnilar tinchligini buzib tinimsiz vovillashiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishlari kabi majburiyatlar yuklangan. Shuningdek, itlar va mushuklarning umum-foydalanishdagi joylarni iflos qilishiga yo'l qo'ymasliklari shart.

**Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.**



## ISHLAB CHIQARISH ZARURIYATI NIMA?

**Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi hollari xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazishda uning roziligi shart emas ekan. Ishlab chiqarish zaruriyati va bekor turib qolinishning o'zi nima?**

**K. Mirzayev.**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining "Ish beruvchining tashabbusiga ko'ra xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish" deb nomlangan 145-moddasida bu savolga javob berilgan.

Ishda bekor turib qolishning oldini olish yoki bartaraf etish, vaqtincha yo'q bo'lgan xodimning o'rniga ishlab turish, ishlab chiqarish avariya va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish, favqulodda holat yoki favqulodda vaziyatda bajariladigan yoki tabiiy, texnogen va ekologik tushadigan halokat oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida, shuningdek butun aholi yoki uning bir qismi hayoti yoki normal yashash sharoitlariga tahdid soluvchi boshqa hollarda amalga oshiriladigan kechiktirib bo'lmaydigan kutilmagan ishlarni bajarish zarurati ishlab chiqarish zaruriyatidir.

Ishni iqtisodiy, texnologik, tashkiliy sabablarga, boshqa ishlab chiqarishga doir yoki tabiiy xususiyatga ega bo'lgan sabablarga ko'ra vaqtincha to'xtatib turish bekor turib qolishdir.

Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan xodimni boshqa ishga o'tkazish davrlari bir kalendar yil davomida jami oltmish kalendar kundan oshishi mumkin emas.



## NECHA YIL MUDDATGA BERILADI?

**Oilaviy ravishda xorijga chiqish uchun pasport olmoqchimiz. Bu pasport necha yil muddatga beriladi?**

**R. Rashidov.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 7-bandiga asosan xorijga chiqish biometrik pasporti fuqarolarga quyidagi amal qilish muddatlariga beriladi:

- tug'ilgan kundan boshlab bir yoshgacha - ikki yil muddatga;
- bir yoshdan 25 yoshgacha - 5 yil muddatga;
- 25 yoshdan oshgan shaxslarga - 10 yil muddatga.

Amal qilish muddati tugaganidan keyin xorijga chiqish biometrik pasporti ma'lumotlarni yig'ish punktiga topshiriladi.

Amal qilish muddati tugagan yoki yaroqsiz holatga kelgan, ammo ichiga qo'yilgan xorijiy davlatlarga kirish vizalarining amal qilish muddati tugamagan xorijga chiqish biometrik pasportlari qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, xizmatdan foydalanuvchining so'roviga ko'ra ma'lumotlarni yig'ish punkti xodimi tomonidan ushbu pasportga bekor qilinganligini ifodalovchi maxsus belgi qo'yilgan holda, yangi xorijga chiqish biometrik pasporti bilan birga eski xorijga chiqish biometrik pasporti ham qaytarib beriladi.

## TABIATNING O‘ZI TABIB ...

Tabiatning o‘zi tabib, deyishadi. Bu hikmat qanchalik to‘g‘ri ekanligi ming yillar davomida xalq orasida o‘z isbotini topib ulguragan. Cheksizliklarga cho‘zilgan tabiat bag‘ridagi neki ne‘mat bo‘lsa, u inson va uning manfaatiga xizmat qiladi. Faqat ularni me‘yorida iste‘mol qilsangiz bo‘ldi. Jumladan sabzavot va poliz ekinlarining ham inson uchun ko‘p foydalar bor. Kasalliklarning oldini olish, yengib o‘tishda tabiat in‘om etgan bu ne‘matlarning foydalarini bilib olsangiz faqat foyda topasiz.

### SABZI



Sabzi kamqonlik, me‘da-ichak yo‘llari, yog‘ bosgan organizm, buyrak kasalliklari va boshqa qator illatlarni davolashda muolajaviy ovqatlanish tarkibida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Xom sabzini iste‘mol qilish soch va tirnoqlarning sinuvchanligida, ko‘rish qobiliyati pasayganda juda foydali. U organizmning kasalliklardan himoyalash kuchini ko‘paytiradi, yuqumli kasalliklardan muhofaza qiladi. Xuddi shuning uchun ham undan organizm vitamin yetishmasligidan toliqadigan qish kunlari, xalqimiz “ilik uzildi” deb ataydigan erta bahor kunlari iste‘mol qilib turish tavsiya etiladi.

### PIYOZ



Piyoz tarkibida oltingugurt bo‘lib, u tanaga osongina so‘riladi va miya erta qarishining oldini oladi. Undan tashqari, piyoz ijobiy his-tuyg‘ularni qabul qilish qobiliyatini oshiradi, shuningdek xotirani tiklashga yordam beradi.

Oltingugurt qon orqali miyaga yetib boradi va bu miya hujayralarini yoshartirishga yordam beradi.

Asal bilan piyoz aralashmasi ham juda foydali komponentdir. U skleroz rivojlanishiga moyil bo‘lgan keksa yoshdagi odamlar uchun foydalidir.

Piyoz saraton rivojlanishini sekinlashtiradi, qalqonsimon bez, yurak qon-tomir tizimi, jigar faoliyatini yaxshilaydi.

### BULG‘OR QALAMPIRI

Bulg‘or qalampiri tarkibida C vitamini immunitet tizimini mustahkamlaydi va tana vaznini kamaytirishga yordam beradi.

B6 vitamini qonning yetarli darajada hosil bo‘lishi uchun juda



muhimdir.

B9 vitamini homiladorlik paytida homila to‘qimasini shakllantirishda juda foydali.

Xotirani yaxshilaydi.

Bulg‘or qalampiri soch, teri va tishlarning holatini yaxshilaydi.

Qonni suyuqlashtirib, tromblar paydo bo‘lishining oldini oladi.

Bulg‘or qalampiri organizmni shlaklardan, toksinlar va zararli xolesterindan tozalaydi.

Bulg‘or qalampiri tarkibidagi kapsaitsin qondagi yomon xolesterin miqdorini kamaytiradi, shuningdek, hujayralar yallig‘lanishining oldini oladi. Natijada ateraskleroz va unga bog‘liq kasalliklar: yurak, qon tomirlari kasalligi, miokard infarktining oldini oladi.

Bulg‘or qalampiri tarkibidagi kaliy qon bosimini pasaytiradi va yurak urishini normallashtiradi.

### POMIDOR




Pomidorni muntazam iste‘mol qilish ovqat hazm qilish tizimini normallashtirishga, toksinlarni va boshqa zararli moddalarni tanadan olib tashlashga yordam beradi.

Kuniga pomidorli salatning kichik bir qismi yoki yarim stakan pomidor sharbati terining qarish jarayonini sezilarli darajada sekinlashtiradi, terini ultrabinafsha nurlanishining salbiy ta‘siridan himoya qiladi.

Shuningdek, pomidor immunitetni oshiradi va kamqonlikning oldini oladi. Qondagi qand miqdorini me‘yorlashtiradi. Hazm qilish jarayonini tezlashtiradi. Qon bosimini me‘yorlashtiradi. Tromb va tiqinlarni bartaraf qiladi. Stressdan himoya qiladi. Ozishni rag‘batlantiradi. Ishchanlik qobiliyatini oshiradi

### TARVUZ

Tarvuz vitaminlar va mikroelementlar, organik kislotalar, o‘simlik kletchatkasi, kalsiy, temir, pektin, magniy, fosfor kabi foydali elementlarga boy mahsulot hisoblanadi.



U peshob va o‘t haydovchi xususiyatga ham ega, tarvuzni doimiy iste‘mol qilish buyrakdagi mayda toshlardan xalos qiladi. Tarvuzdagi vitamin va minerallar yurak faoliyatini yaxshilabgina qolmay, tomirlardagi xolesterinni ajratib chiqarib yuboradi.

Undagi temir moddasi organizmga oson so‘riladi va bu gemoglobin ko‘rsatkichining tezda normallashtirishga olib keladi. O‘simlik kletchatkasi esa ichak mikroflorasini yaxshilaydi, moddalar almashinuvini me‘yorlashtiradi.

### QIZIL LAVLAGI



Qizil lavlagi ko‘p iste‘mol qilish insonda baxt gormoni serotoninini ko‘paytiradi. U magniy va temir moddalariga boy bo‘lganidan insonni kamqonlilik kasalligidan saqlaydi. Inson tanasidagi charchoq va horg‘inlikni qoldiruvchi kuchli vosita hisoblanadi.

Mutaxassislar uni jismoniy va aqliy toliqish davrida iste‘mol qilishni tavsiya etishadi. Qizil lavlagi tanadagi yog‘larni eritish xususiyatiga ega bo‘lib, zararli toksin moddalarini jigardan chiqarib yuboradi. Kayfiyatni ko‘taradi, charchoqni tarqatadi va tanaga quvvat bag‘ishlaydi.

### GULKARAM

Gulkaramni ham pishirib, ham xomligicha iste‘mol qilish mumkin. Uning tarkibida kaliy, magniy, kalsiy, marganes, temir, rux kabi elementlar va shifobaxsh vitaminlar talaygina. Shu bois gulkaram yurak, jigar kasalliklari hamda ayollarda uchraydigan ko‘krak bezi saratoni profilaktikasi uchun tavsiya etiladi.

Dunyodagi “Sog‘liq uchun foydali taomnomalar” reytingida gulkaramdan tayyorlangan yeguliklar eng yuqori o‘rinda turadi. Gulkaram ovqat hazmini yaxshilaydi, tanada ortiqcha yog‘ to‘planishini kamaytirib, metabolism (semizlik)ning oldini oladi.



Gulkaramdagi “B” vitamini miya faoliyatini yaxshilashda samarali manba hisoblanadi. Undagi ko‘plab vitaminlar yosh bilan bog‘liq xotira pasayishining oldini oladi. Shuningdek, kuchli siqilish, miya zo‘riqishi hamda qarishni ham sekinlashtiradi.

### MOSH



Mosh asablarni tinchlantiradi, ko‘zning ko‘rish quvvatini oshiradi. Bosh og‘riqlariga, buyrak xastalıklarida yaxshi naf keltiradi. Miya faoliyatini yaxshilovchi omil hisoblanadi. Unda zehnni o‘tkir qilish xosiyati ham bor. Parishonxotirlikning oldini oladi.

Moshli taomlar a‘zoi-tanani mustahkamlaydi, yuqumli xastalıklarga bardoshlilikini oshiradi. Shuni yodda tutish kerakki, mosh sovuq mijozli hamda keksa kishilarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Sovuq mijozli kishilar moshli taomlarni zira, murch, dolchin, qalampir, zanjabil, xantal kabi ziravorlar bilan tanovul qilishlari darkor. Shu bilan birga, allergiyasi bor kishilar moshdan ozroq iste‘mol qilishlari lozim bo‘ladi.

### MAKKAJO‘XORI

Makkajo‘xori mevasidan olingan moy qon tarkibidagi xolesterinni kamaytirish, arteroskleroz kasalligini davolash va oldini olishda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, organizmda moddalar almashinuvini yaxshilashda, qandli diabet, nefrit, buyrak-tosh va xolesistit kasalligida foydali ta‘sir ko‘rsatadi.

Jo‘xori temir, kalsiy, fosfor, magniy va boshqa mikroelementlarning manbai sanaladi. Qaynatilgan jo‘xori qandli diabet bilan og‘rigan bemor tanasidagi qand miqdorini normallashtiradi,

Allergiyaga moyilligi bor insonlarga, kamqonlikdan aziyat chekuvchi, jigar, yurak xastaligi bilan og‘rigan kishilarga yaxshi foyda beradi.



\*COCA-COLA SUPERLIGA\* COCA-COLA SUPERLIGA\* COCA-COLA SUPERLIGA\* COCA-COLA SUPERLIGA\* COCA-COLA SUPERLIGA\*

## "METALLURG" SO'NGGI 11TA O'YINDA HAMMADAN KO'P OCHKO JAMG'ARDI

Avgust oyida "Metallurg" chempionat peshqadamlari va musobaqa jadvalida yaqin joylashgan klublar bilan bir qator og'ir uchrashuvlar o'tkazdi. Bu o'yinlarda "Metallurg" har qanday jamoalar bilan maydonda bemaol tengma teng to'p surishi mumkinligini amalda isbotladi.



## AJOYIB G'ALABA

Superliganing 19-turida "Metallurg" Olmaliqda OKMK bilan kechgan o'yini bu safar ham juda qiziqarli va muvofiq o'tdi. Avvalgilaridan farqi gollarga boy bo'ldi va unda bekobodliklarning qo'li baland keldi.

Uchrashuvning dastlabki daqiqalaridanoq maydon egalari Osiyo chempionlar ligasidagi mag'lubiyat uchun muxlislari oldida o'zlarini oqlab olmoqchi ekanliklari sezilib turdi. Ular to'pni ko'proq nazoratda ushlab turdi, "Metallurg" esa o'yini tezkor qarshi hujum taktikasi asosida qurdi. Bu esa tez orada o'z samarasini berdi. 23-daqiqada Sardor Abduraimovning burchakdan uzatib bergan to'pini bo'ychan himoyachimiz Rizo Yazdando'st raqib darvozasi to'riga tushirdi va hisobni ochdi - 0:1. Maydon egalari hali o'zlariga kelib ulgurishmasidan Shahzodbek Ubaydullayev chamasi 25 metrlik olislikdan jarima zarbasini qoyilmaqom amalga oshirdi - 0:2. OKMK esa tanaffusgacha hisobni qisqartirishning uddasidan chiqdi. Albatta bunda to'pning himoyachimiz qo'lga tegib ketishi yordam berdi. Penaltini Xurshid G'iyosov bexato amalga oshirdi.



Ikkinchi taymda ham maydonda ssenariy o'zgarmadi. OKMK tinimsiz hujumga otlandi. "Metallurg" esa raqibni qarshi hujumda jazoladi. Taym boshidayoq Shahzodbek Ubaydullayev dublini rasmiylashtirib qo'ygan bo'lsa, o'yin tugashiga o'n daqiqa qolganda Zabixillo O'rinboev g'alabani mustahkamladi. Bu gollar oralig'ida Akromjon Komilov javob golini urishga muvaffaq bo'lgandi - 2:4

So'nggi daqiqalarda maydonda bir kishi kam bo'lib qolgan hamshaharlarimiz g'alabani saqlab qolishdi.

## SHAHZOD UBAYDULLAYEV ENG YAXSHI FUTBOLCHI

O'zbekiston professional futbol ligasi an'anaga muvofiq oyning eng yaxshilarini aniqlashda davom etmoqda. Coca-Cola Superliganing sentabr oyi bo'yicha eng yaxshi futbolchisi so'rovnomasida "Metallurg" hujumchisi Shahzodbek Ubaydullayev zafar quchdi. U nominatsiya g'olibliigi yo'lida Islom Kenjaboyev hamda Xurshid G'iyosovlarni ortda qoldirdi.

Ma'lumot uchun, Ubaydullayev sentabr oyida 2 ta o'yinda raqiblari darvozasiga 3 ta gol kiritdi va "Metallurg"ning g'alabalariga o'zining munosib hissasini qo'shdi.



## "METALLURG" - "ANDIJON" - 2:0

Uy o'yinlarini Olmaliq o'yingohida o'tkazayotgan "Metallurg" 20-turda yana g'alaba qozondi. Oldingi turda mezbonlar ustidan zafar quchgan bekobodliklar bu safar Olmaliqda maydon egasi sifatida faoliyat olib bordi va "Andijon"ni ishonchli tarzda mag'lubiyatga uchratdi.



Uchrashuvning dastlabki daqiqalaridanoq o'yin tizgini va tashabbusni qo'lga olgan bekobodliklar 34-daqiqaga kelganda hisobni ochishga muvaffaq bo'lishdi. Chap qanotdan Abror Toshqo'ziyevning uzatib bergan to'pini jarima maydoni ichida Zabixillo O'rinboev ayyorlik bilan o'tkazib yubordi. Bu esa raqib himoyachisini chalg'itdi va to'p uning oyog'iga tekkan holda Ubaydullayevga borib tushdi. Shahzodbek to'xtatib o'tirmasdan to'pni darvoza to'riga joylab qo'ydi. Birinchi taymda vakillarimizda yana bir necha bor imkoniyat bo'lsa-da, boshqa gol urish nasib etmadi.

Tanaffusdan keyin mehmonlar murabbiyi bir yo'la uch nafar o'yinchisini almashtirdi. Ammo bu ham samara bermadi. Shahzodbek Ubaydullayev o'rniga maydonga tushgan Daler Sharipov "Metallurg"ning asosiy tarkibidagi birinchi "debyut" golini urdi - 2:0.

Uchrashuvning qolgan daqiqalari ham "Metallurg"ning ustunligi ostida o'tgan bo'lsa-da, o'yinda hisob boshqa o'zgarmay qoldi. Qatorasiga ikkinchi o'yinda muvaffaqiyatga erishgan "Metallurg" musobaqa jadvalida yana bir pog'ona yuqorilashga erishdi.

## QIYIN O'YINDA DURANG

Mamlakat milliy chempionatining 21-turini 5-oktabr kuni safarda "Turon"ga qarshi o'tkazgan "Metallurg" nihoyat o'zi uchun omadsiz bo'lgan "O'zbekiston" stadionidan bir ochko bilan qaytadigan bo'ldi. Muqaddam "Qo'qon 1912", "Turon" hamda "Neftchi"ga qarshi o'yinlarda imkoniyatni boy bergan bekobodliklar bu safar maydon egalari bilan qiyin kechgan uchrashuvda bitimga imzo chekdi.

Uchrashuv bekobodliklar uchun juda og'ir boshlandi. To'p nazorati va hududiy tashabbusni mezbonlarga berib qo'ygan vakillarimiz birinchi taym tugashiga o'n daqiqa qolganda himoya chizig'imizning qo'pol xatosi evaziga gol o'tkazib yubordi. Taym oxiridagi "shturm" esa samara bermadi.

Tanaffusda murabbiylardan tegishli ko'rsatmalarni olib maydonga qaytgan yigitlarimiz ikkinchi taymda o'z o'yinlarini namoyish etish-

di. Oxirgi turlarda muntazam raqib darvozasini ishg'ol etib kelayotgan Shahzodbek Ubaydullayev bu gal ham maydonni golsiz tark etmadi. Mahinining yon chiziqdan tashlab bergan to'pini jarima maydoni ichida Rizo Yazdando'st yanada olisroqqa tashlab berdi. Himoyachilar tomonidan qarovsiz qoldirilgan Shahzodbek Ubaydullayev esa to'pni bosh bilan urib, raqib darvozasi to'riga tushirdi - 1:1. Bu hisob esa o'yin oxirigacha o'zgarmay qoldi.

## YOMON NATIJA EMAS, AMMO...

20-oktabr kuni 22-turda Olmaliqda "Buxoro"ga kechgan bahs avvalidayoq muammoga duch keldik. Iskandar Shayqulov yo'q joydan qizil kartochka oldi va jamoamiz yigirma daqiqadan ko'proq maydonda kamchilik bo'lib o'ynadi. Birinchi taym oxiriga kelganda mehmonlar hujumchisi Mahmud Jo'raboyevning qo'polligi bois tarkiblar son jihatidan tenglashib olishdi.

Ikkinchi taymda tashabbus to'liq "Metallurg" tomonida bo'ldi. Juda ko'plab xavfli vaziyatlarni, gollik kombinatsiyalarni tashkil etdik. 11 metrlik belgidan jarima zarbasini amalga oshirdik. Ammo gol kirmasa qiyin ekan. Bu durangdan "Buxoro"ga ham naf yo'g'u, biroq muxlislari oldida o'zlarini oqlab olishdi. Bir ochkolik bo'lishdi. Bu ochko jon saqlash uchun yetarli bo'larmikan.

"Metallurg" esa kuchli sakkizlikka kirish uchun kurashni davom ettiradi. 23-turda jamoamiz "Nasaf"ga qarshi maydonga tushdi.



## KELAJAK AVLODNI KIM TARBIYALAYDI?

Qadim xitoyliklar tinchlik-omonlikda yashash uchun Buyuk Xitoy devorini qurishgan. Ularning ishonishicha, devor qanchalik baland bo'lsa, uni oshib o'tish shunchalik qiyin bo'ladi. Lekin...

Devor qurilgandan keyingi yuz yillikda Xitoy uch marta dushmanlar bosqiniga uchragan. Har safar dushmanning quruqlik qo'shinlari devorni teshish yo oshib o'tishga majbur bo'lishmagan. Balki qo'riqchilarga pora berib, qal'a darvozalaridan kirib borishgan.

Xitoyliklar devor qurish bilan ovora bo'lib, qo'riqchi qurishni unutishgandi.

Odami bino qilish har qanday binodan oldin keladi. Bugungi kun ziyolisi buni bilishi kerak.

Sharqshunoslardan biri shunday degandi:

Agar bir millatning qalbi, axloq va qadriyatlarini yo'q qilmoqchi bo'lsangiz, buning uchta yo'li bor.

Ular - oilani va ta'limni buzish, yo'l boshchilarni qadrsizlantirishdir.

Oilani buzish uchun oilada onaning o'rnini yo'q qiling. U "uy bekasi" ekanidan uyaladigan va nafratlanadigan holga kelsin.

Ta'limni buzish uchun muallimga e'tibor qarating. Jamiyatda uning qadri qolmasin. Shu darajada obro'sizlantiringki, hatto o'zining o'quvchilari nazarga ilmasin.

Yo'l boshchilarni qadrsizlantirish uchun ulamolarga e'tibor qarating. Ularni doim malomat qiling, sha'nlarini yerga uring. Ular to'g'risida shubhalar uyg'ot-ing, toinki biror kishi eshitmasin, ergashmasin.

Agar ongli ona yo'qotilsa, ixlosli muallim yo'q qilinsa, yo'l boshchi yiqitilsa kelajak avlodni kim tarbiyalaydi?

**Mustafo MAHMUD,**  
"Kelajakni o'qiy bilish"  
kitobidan.

## QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

### OPTIMIST

- Odamlar kerak bo'lib qolganing-dagina seni eslashadi!

- Demak, kimgadir hali ham kerakli ekanman.

- Odamlar sendan foydalanishadi, deyapman!

- Demak, foydali inson ekanman...

**Malika MUMTOZ.**

### SABOQ

Ukam bog'chadan so'kishni o'rganibdi. Aka-ukalar o'ynab o'tir-ganimizda nimadandir qattiq jahli chiqib: "Onangni..." deb so'kvordi. Buni onam eshitib qolgan ekan. Hammamizning oldimizda ukamning ta'zirini berib qo'ydi. Bu biz uchun ham yaxshi saboq bo'ldi.

Hozir hammamiz farzandli, nevarali bo'lganmiz. 5 nafar aka-ukadan hech birmiz so'kinmaymiz.

**Ismat DIYOROV.**

### MEHR BO'SASI

Farzand qarib qolgan, oyog'i og'ri-yotgan onasini tavof qildi va oyog'ini uzoq uqaladi, so'ng o'pib qo'ydi. Uni ulug'ladi. Sekin boshini yuqoriga ko'tardi va ajin to'la yuz bilan jilmay-ib qarab turgan onasini ko'rdi.

-Nechun yuzingizda tabassum onajon? - so'radi o'g'il.

- Yoshligingda oyog'ingdan o'psam qiqir-qiqir kular eding! O'shanda oyog'ingdan emas yuragingdan o'pgan ekanman.

**Husan NASRULLAEV.**

### OQAR SUV

Mening orzu-maqсадlarim katta edi. Bugun emas, ertadan boshlay-man derdim. Yillar o'tdi, erta ham keldi...

Ko'zguga boqqanimda undan bir mo'ysafid qarab turardi...

**Muzaffar IKROMOV.**

## IBRATLI DUNYO

Laylaklar hech qachon keksa lay-laklarga hujum qilmas ekan. Pat-lari qalin qarg'a o'zidan zaif bo'lgan

qarg'ani sovuqdan himoyalar ekan. Fillar qanchalik kuchli bo'lmasin, biror dushman hujumiga uchrasa, avvalo to'dadagi keksa, kuchsiz va yarador fillarni xavfsiz joyga olib o'tishar ekan...

Ajablanarlisi nima, bilasizmi?

Ajablanarlisi, ular yaxshi va yomonni ajratolmaydi. Ularda mana bu ish savob, bunisi esa gunoh bo'ladi, degan tushuncha yo'q. Ular bu ishlarni biror mukofot uchun yoki e'tirof eshitish uchun bajarmaydi. Ular hech qachon "hayvongarchilik qildim", deb bir-biriga maqtan-ishmaydi...



## HIKMATLAR XAZINASI

Hayo - insonning abadiy go'zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi.

**Abu Ali ibn Sino.**

Sizni maqtagan insonlardan tinch-gina uzoqlashing. Maqtovning oxiri kibr va g'aflatdir.

**Albert Kamyu.**

Adashish har bir insonga xos sifat. Ammo adashganlarning qaysarlik bilan o'z yo'lida davom etaverishi - aqlsizlik.

**Sitseron.**

Agar aqling bo'lsa, hunar o'rgan, chunki, hunarsiz aql libossiz tun yoki yuzsiz odamga o'xshaydi. Bilim aql belgisidir.

**Kaykovus.**

## BILIMINGIZNI SINANG!

Alyumin kastyullar yaraqlab turishi uchun nima qilish kerak?

\*\*\*

Parijning Eyfel minorasini yiliga qancha sayyohlar kelib ko'rishadi?

\*\*\*

Andorra knyazligiga samolyot va poezdga borsa bo'ladimi?

\*\*\*

Insonda ikki narsa bardavom bo'lmaydi. Ular nima?

\*\*\*

Avtomashina oynasi terlamasligi uchun nima qilish kerak?

\*\*\*

Ta'mirdan keyingi bo'yoq hidini nima bilan tezroq ketkazish mumkin?

**Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.**

**Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.**

Olmaxonlar yemishini qayerga berkitganini unutib qo'ysa bu joylarda daraxtlar o'sa boshlaydi.

\*\*\*

Koala ayig'i.

\*\*\*

Qunduzlar suvda uxlaganda oqim ularni turli tomonlarga oqizib ketmasligi uchun bir-birlarining qo'llaridan ushlab uxlaydilar.

\*\*\*

Ortitofobiya - qushlardan qo'rqish kasalligi.

\*\*\*

Siyoh dog'ining ustiga ozgina spirt to'ksangiz dog' oson ketadi.

## XANDALAR

Bayram arafasida er xotiniga tinmay tirjaya boshladi:

- Dadasi, nima gap, namuncha menga qarab tirjayasiz?

- E, xotin! Kecha televizorda "Agar xotiningizga bayramga sovg'a sotib ololmasangiz, tabassum qiling", deyishdi.

O'rmonda yangi do'kon ochilishi kerak ekan.

Hamma navbatda turibdi. Quyong kelib navbatga qaramay, oldinga o'tib ketayotsa, ayiq quyongni girbonidan olib:

- Hov anavi navbatning oxiriga bor, endi kelyapsan! - debdi.

Ikkinchi, uchinchi kun ham shu holat qaytarilibdi.

Quyong:

- Qiziq, uch kundani beri o'z do'konimni ocholmayapman-a, - deb g'udurlagan-gan qaytib uyiga kirib ketibdi.



**MUASSIS:**  
O'zbekiston metallurgiya  
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

[WWW.uzbeksteel.uz](http://WWW.uzbeksteel.uz)

**Muharrir:**  
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar  
"O' zmetkombinat"  
aksiyadorlik jamiyatining  
Metallurglar madaniyat saroyida  
joylashgan.

Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta  
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida  
terilib, sahifalandi va "Niso Poligraf"  
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili:  
O'rta Chirchiq tumani, "Oq ota"  
hududi "Mash'al" mahallasi,  
"Markaziy" ko'cha, 1-uy.

**Sahifalovchi:**  
Inom Xojimurodov

**Bosishga topshirish vaqti 17.00**  
**Bosishga topshirildi-15.30**  
**Adadi 600. Bichimi A-3.**  
**ISSN 2181-645X**  
**Gazeta "O' zmetkombinat"**  
**AJda bepul tarqatiladi.**